

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

1
2024



08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 788 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 7-fevralda ruxsat etildi.

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMIB birinchi prorektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.



MUNDARIJA

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalarning roli va ahamiyati.....	10
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Zaynutdinova Umida Djalolovna	
Yashil iqtisodiyotga o'tishda konseptual, ilmiy, innovatsion yondashuvning zarurati	16
Gulnora Abdurahmonova	
O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tish muammolari va uni bartaraf etish yo'llari	22
S. R. Topildiyev	
Milliy strategik maqsadlar: ekologik va bojxona boshqaruvi mexanizmlarining maqbul kombinatsiyasi	28
Muratova Shohista Nimatullayevna	
Green Economy in Tourism in Uzbekistan.....	32
Alieva Makhbuba Toychievna	
Инновационные подходы в сельском туризме: "Зеленые маршруты"	36
Голышева Елена Вячеславовна	
Mamlakatimizda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo'nalishlari	42
Vaxabov Abduraxim Vasikovich, Nazarov Nazirjon Narzilloevich	
To'qimachilik sanoati korxonalarini barqaror rivojlantirish omillari.....	47
A.Yu. Mardanov	
Turizmni qayta jonlantirish strategiyasini ishlab chiqishda turizmni rejalashtirishning istiqbollari.....	52
A'zamov Saidakbarxon Avazxon o'g'li	
O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishi asosida barqaror rivojlanishga erishish	57
Abdullayev Elyorbek Odiljon o'g'li	
Barcha tadbirkorlik subyektlariga teng raqobat sharoitini yaratishda soliq imtiyozlarining o'rni	62
Akbarov Akmalxon Akrom o'g'li	
Turistik hududlarning barqaror rivojlanishini baholash metodologiyasida integral baholash ko'rsatkichlarini aniqlashning nazariy jihatlar.....	66
Asraqulov Abduraxmon Sultonovich	
Iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda "yashil" iqtisodiyot va uning ayrim masalalari.....	70
Axunova Shoxistaxon Nomonjanovna, Sultonova Gulbaxor Shoxnazimovna	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligi faoliyatining nazariy tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlari.....	74
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich	
Mintaqa iqtisodiyotida agrar soha samaradorligini oshirishning ahamiyati.....	78
Butanova Dilnoza Rustamovna	
Global krizislar va ularning turizm iqtisodiyotiga ta'siri.....	83
Hallakova Barnoxon bahodirjonovna	
Agroturizm faoliyati rivojlanishining xorijiy tajribalari va ularda faoliyatni rivojlantirish modellarining qo'llanilishi.....	95
Husanboyev Sadafbek Yorqinjon o'g'li	
Yashil iqtisodiyotni kreditlashda banklarning o'rni.....	101
Ibragimova Sevara Muxamedjan qizi	
Qurilish materiallari sanoati korxonalari samaradorligini baholash masalalari.....	104
Isayev Jakhongir Muzaffarovich	
Iqtisodiyotni islomiy moliya tamoyillari asosida moliyalashtirish amaliyotini joriy etish istiqbollari	110
Kasimov Baxtiyor Usmanovich	
Oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishning iqtisodiy mexanizmi.....	113
Mahamatova Maftuna	
Turizm xizmatlar bozorida raqobatbardoshlik ko'rsatkichlarini takomillashtirish imkoniyatlari.....	119
Nurfayziyeva Mohinur Zayniddinovna	



Islom moliyalashtirish xizmatlari asosida kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish usullari.....	124
Said Po'latov Maxamedovich	
Using Innovative Technologies in Hotels as a Factor of Sustainable Development of Tourism Industry	128
Sayfutdinov Shuxratjon Sultonovich, Egamberdiyev Sirojiddin Sattor o'g'li	
Dorivor o'simliklar yetishtirishning dunyo mamlakatlari iqtisodiyotidagi o'rni va xalqaro bozor savdosida prognozlar.....	135
To'xtabayev Jamshid Sharofiddinovich, Maftuna Ermatova Arslonbek qizi	
O'zbekistonga turistlar tashrifini ko'paytirishda raqamli texnologiyalarning o'rni	142
Toshmurod Kulmanov	
Agrobiznesni moliyaviy quvvatlash va rivojlanish istiqbollari	147
Tursunova Dilnavo Islomovna	
Oziq-ovqat bozorini qandolat mahsulotlari bilan to'ldirishda marketing strategiyalaridan foydalanishni takomillashtirish.....	150
Azlarova Munira Muxammad-Amin qizi	
Yoshlar turizmini rivojlantirish holati va uni takomillashtirish yo'llari.....	159
Allayor Norboyev Ismoilovich	
Biologik aktivlarni baholashning uslubiy jihatlarini takomillashtirish.....	162
Boltayev Abror Sayitmuradovich	
Agrosanoat ishlab chiqarishida innovatsion jarayonlarni tadqiq qilishga uslubiy yondashuvlari.....	168
Dusmatov Begmuhammad Olimjonovich	
Suv resurslaridan samarali foydalanishda suv solig'ining ahamiyatini oshirish	174
Ikramov Nuriddin Kamolitdinovich	
Xizmat ko'rsatish sohasida innovatsiya va innovatsion faoliyat bilan bog'liq tushunchalarining nazariy masalalari	179
Mamayunus Qarshibayevich Pardayev, Temur Olimovich Mamayunusov	
Aglomeratsiya iqtisodiyoti – Agglomeratsiya iqtisodiyoti – hududiy rivojlanishni harakatlantiruvchi omili sifatida	185
Raximbayev Akmal Azatboyevich	
Korxonalarini boshqarish samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish mexanizmlari	190
Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich	
Globalashuv sharoitida turizm sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish	195
Salimov Dilshodbek Davronovich	
To'qimachilik sanoat korxonalarida marketing strategiyasi.....	199
Tillyaxodjayev Azizxon Aloxonovich	
Oziq-ovqat sanoati korxonalari raqobatbardoshligini oshirish yo'llari	203
Nilufar Umarova	
O'zbekistonda transport xizmatlari ko'rsatilishi tahlili	207
Xasanov Sarvar Ulug'bek o'g'li	
Agrar sektorga jalb qilingan investitsiyalarning sohadagi intensiv iqtisodiy o'sishga ta'sirining tahlili	213
Yangiboyev Sirojiddin Jo'ramurodovich	
Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlarda auditning xalqaro standartlarini qo'llash xususiyatlari	220
Meliyev Isroil Ismoilovich	
Raqamli bank xizmatlarini yanada takomillashtirish: muammolar va yechimlar	227
Melikov Otabek Maxmadiminovich	
Innovatsion iqtisodiyotda inson kapitalining tutgan o'rni.....	232
Abdikarimov Islombek Ibragimovich	
Kimyo sanoati korxonalarini boshqarish modellariga oid zamonaviy tajribalar.....	237
Avulchayeva Feruza Djurakuziyevna	
Задачи предмета «русского языка» на современном этапе	243
Адилова Солияхон	



Tijorat tashkilotlarining investitsiya faoliyati	247
Farhod Mahmudovich Tirkashyev, Asomiddinov Husan Asomiddin o'g'li	
Korrelyatsion-regression tahlil orqali turizm xizmatlari samaradorligini oshirish mexanizmlari.....	252
Gapparov Azim Qayumovich	
O'zbekistonda monetizatsiya darajasi va uni makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri.....	258
Isayev Atabek Djurabayevich	
Prospects for the Development of Bond Circulation in the Capital Market.....	266
Jurabek Sobirov	
Ta'lim xizmatlari bozorida oliy ta'lim muassasalarining rivojlanish holati tahlili.....	270
Kuldashev Sherzod Alimardonovich	
Iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish va ularning barqaror iqtisodiy o'sishdagi roli	276
Mamadiyeva Dilrom Ravshon qizi	
Surxondaryo viloyatlarning marketing salohiyatini shakllantirish holati tahlili	280
Mamadjanova Tuyg'unoy Axmadjanovna	
Improving Internal Control System	287
Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li	
Oliy ta'lim xizmatlarini targ'ib qilishda OTMLar veb-saytlari samaradorligini oshirish.....	291
Musayev Bekjon Shukurillayevich	
Korxonaning narx-navo tizimi va narx siyosatini tahlil qilish	298
Musayeva Shoira Azimovna, Usmonova Dilfuza Ilhkomovna	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tibbiyot sohasini moliyalashtirish istiqbollari.....	302
Muxammadiyev Ramz Zoirjon o'g'li	
Xizmatlar ko'rsatish subyektlarida biznes-modellarining raqamli transformatsiyalashuv konsepsiyalari.....	306
N. B. Yahyoxonov	
Mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi kredit tashkilotlarining samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili.....	311
Nazarova Muslima Nazarovna	
Sanoat korxonalarida aylanma mablag'lardan foydalanishning ilmiy-amaliy jihatlarini	317
Nurmatov Mirzaakbar Mirzaaliyevich	
Biznesni yuritishda korxonalararo integratsion jarayonlarni rivojlantirish masalalari.....	322
Olimova Nodira Xamrakulovna	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning moliyaviy mexanizmlari: tahlil va istiqbollar	329
Oppoqxonov Nurmuhammadxon Po'latxon o'g'li	
O'zbekistonda davlat korxonalari transformatsiyasini jadallashtirish yo'nalishlari.....	333
Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li	
Aholining turmush darajasini oshirish sharoitida mehnat bozori transformatsiyasining dinamikasi	338
Rahimboyev Muxtorbek Ikrom o'g'li	
Tijorat banklarida iqtisodiy-matematik modellashtirish samaradorligini yanada oshirish usullari.....	341
Raxmanov Mexridin Sindarovich	
Aholi moliyaviy savodxonligiga investitsiya kiritishning ahamiyati.....	345
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda valyuta siyosatini samarali tashkil etish.....	350
Samandarov Zuxriddin Raup o'g'li	
Sharq va G'arb tamaddunida gender qarashlar	355
Samandarova Gulxayo Abduraim qizi	
Imkoniyati cheklanganlarga to'siqsiz turizm xizmatlarini tashkil etish istiqbollari	359
Tilovmurodov Dostonbek Furqat o'g'li	
To'qimachilik korxonalarining inqirozga qarshi boshqaruvida davlat tomonidan tartibga solishning ahamiyati	363
Todjimamatova Mashxura Erkinovna	
Mintaqalarning ekologik-iqtisodiy xususiyatlari va ularning barqaror rivojlanish bilan bog'liqligi	367
Toshboyev Muzaffar Muxtorovich	



Перспективы развития сферы услуг в Узбекистане.....	373
Tsoy Marina Petrovna, Li Marina Rudolfova, Romashkin Roman Anatolyevich	
Opportunities for Bicycle Tourism in Zomin, Bulungur and Bakhmal Districts.....	379
Urozaliev Elyor Shuxrat ogli, Xujamov Bobur bahodir ogli, Saydullayev Abbosjon Murodovich	
Pul-kredit siyosati va moliyaviy inqiroz: uslubiyot va saboqlar	384
Xakimov Dilshodjon Rahmonaliyevich	
Korxonalarda barqaror rivojlanishni tatbiq etish istiqbollari.....	391
Xidirova Marg'uba Rustamovna, Jumayeva Guzal Sherxon qizi	
Telekommunikatsiya korxonalari faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish.....	396
Xusanov Ulugbek Nishanovich	
Milliy iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasini kengaytirish imkoniyatlari.....	402
Xuseynova Feruzabonu Mamadaliyevna	
O'zbekiston iqtisodiyotida raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari.....	405
Yo'ldosheva Dilnoza G'ayrat qizi	
Необходимость соблюдения этических норм в профессиональной деятельности бухгалтеров	408
Абдуллаханова Гулбахор Саттаровна	
Mintaqalarda kichik innovatsion korxonalarni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	412
Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich, Axmadjanov Ilyosbek Ilxomjon o'g'li	
Tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishini nazariy masalalari.....	416
Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich, Abduraxmonov Sherali Sharifjonovich	
Пути повышения прозрачности бюджета Республики Узбекистан.....	420
Адашов Гайрат Рустамович	
Mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va uning lizing munosabatlari rivojlanishi bilan bog'liqligi	424
Axmediyeva Aliya Toxtarovna	
Тенденции и факторы развития пищевой промышленности в Узбекистане	432
Б. А. Хакимов	
Роль платежных систем в функционировании электронной коммерции.....	438
Бабаева Гузаль Яшиновна	
"Sirdaryo" va "Sirdaryo-Farm" erkin iqtisodiy zonasidagi xorxonalari erishgan yutuqlari, berilgan imtiyozlar va yaratilgan shart-sharoitlar to'g'risida	444
Davlayev G'olib Ashurovich	
Milliy iqtisodiyotga jalb qilingan investitsiyalarning tahlili	447
Djalilov Dostonbek Abduazizovich	
Ishlab chiqarish tafovutining Markaziy Bank monetar siyosati qarorlariga ta'siri.....	452
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich	
O'zbekistonda innovatsion jozibadorlik asosida oliy talim xizmatlarini rivojlantirish.....	457
Jonuzokov M. K.	
Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni takomillashtirishda xorij tajribasidan foydalanish.....	461
Ismailov Allayor Rashidovich	
Особенности формирования ценовой стратегии на рынке плодоовощной продукции.....	465
Исроилов Абдурашид Абдурахманович	
Iqtisodiyotni globalashuvi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar barqarorligining nazariy metodologiyasini takomillashtirish	471
Kalandarova Nargiza Narimanovna	
Проблемы регулирования и защиты инвесторов в развитии электронной коммерции и пути их решения	475
Кенжебаева Гульфуза Рахматиллаевна	
Сущность, цели и задачи определение уровня финансовой устойчивости предприятия в современных условиях	478
Киличев А. А.	
Sug'urta tashkilotlari tomonidan taqdim etiladigan hisobotlarni xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish	485
Kodirkulov Oybek Turdiboyevich	



Классификация институциональных факторов, определяющих предпринимательскую активность в Узбекистане.....	490
Курпаяниди Константин Иванович	
Ho'jalik yurituvchi subyektlarning kredit va qarz mablag'laridan foydalanish samaradorligi tahlilini takomillashtirish.....	497
Mahmudova Go'zal Samadjon qizi	
Muqimiy ijodiDA milliy uyg'onish va iqtisodiy, falsafiy qarashlar	502
Muxlisa Muxitdinova	
Совершенствование управления портфелем залогов для обеспечения финансовой устойчивости: инсайты и рекомендации для Узбекистана	505
Наимов Шахрух	
Определение специфических особенностей и факторов влияющие на процесс внедрения международных требований и стандартов в коммерческих банков Республики Узбекистан.....	509
Хайдаров Зохирид Шарирович, Каражанова Гулноза Толлиевна, Хайдари Фидои Зохирид Зода	
Inson kapitalida mujassam bo'lgan fazilatlar, ularning jamiyat rivojlanishidagi o'rni va roli	514
Mamayunus Qarshibayevich Pardayev, Sevara Abdinazarovna Babanazarova, Mexrangiz Olimovna Mamayunusova	
Развитие рыночных отношений и усиление их влияния на рост объёмных и качественных показателей культурного туризма.....	521
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Основные направления цифровой трансформации в банковском секторе.....	525
Рахимова Гавхар Ойбековна	
O'zbekistonda ayollarni tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishda bank kreditlarining roli	530
Saidova Subhinigir Azizovna	
Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish asosida kambag'allikni qisqartirishning innovatsion yo'llari	535
Sultonov Shodiyor Abduhalilovich, Nazarov Asqar Anvar o'g'li	
Yuridik shaxslar mol-mulkiga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari	541
Umirov Xurshid Islomovich	
Korxonalar va tashkilotlarni modernizatsiya qilish jarayonlari.....	545
Fayziyeva Dilafuz Shuxratovna	
"Авеста" – исторический источник экономической мысли в Древней Средней Азии	549
Хакимов Назар Хакимович, Садиков Анвар Каримович	
Приоритетные направления развития теории формирования финансовой политики предприятия	555
Хамдамов С. Ф.	
Innovatsion rivojlanish sharoitida inson resurslarini strategik boshqarish.....	562
Xasanova Nafisa Shavkatovna	
Mehnat bozorida mehnat resurslaridan samarali foydalanishda yoshlar bandligini takomillashtirish.....	566
Xuvaydullayeva Iroda Xusniddin qizi	
Sanoat korxonalari faoliyati samaradorligi va raqobatbardoshligini baholashga doir uslubiy yondashuvlar.....	572
Yuldasheva Nilufar Abduvaxidovna	
Amir Temur davrida hunarmandchilik siyosatining o'ziga xos iqtisodiy xususiyatlari	578
Zikrillayev Jaxongir Sarvar o'g'li, ilmiy rahbar: Nasimov Baxtiyor Vasiyevich	
Infratuzilma obyektlari rivojlanishining turizm sohasidagi o'rni.....	583
Toyrova Amina Baxtisher qizi	
Korxonalarda moliyaviy investitsion portfelni jalb qilish va rag'batlantirishning zamonaviy shakl va usullari tahlili	588
Haydarov Humoyun Begmurod o'g'li	
Kichik biznes korxonalari raqobatbardoshligini tadqiq etishga konseptual yondashuvlar	592
K. Q. Tajibayev	
Бухгалтерский учет дебиторской и кредиторской задолженности в современной экономике	599
Камолова Феруза Кахрамоновна	



O'zbekistonda mehmonxona sohasidagi mahalliy boshqaruv tizimini takomillashtirish yo'llari.....	603
Mirzayeva Lola Shavkatovna	
Turizmni rivojlantirishda "yashi" marketingni o'rni.....	607
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna	
Inson kapitalini boshqarishning xorij tajribasi.....	612
Ruzmetova Gulira'no Atabekovna	
Agrasanoat majmuasida oziq-ovqat mahsulotlarini yetishirish va qayta ishlashda klasterlarini rivojlantirishning xalqaro tajribalari.....	620
Salixov Sherzod Abduxakimovich	
Mamlakatimizda mehnat bozorida ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish	625
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
Budjetdan tashqari mablag'lar hisobi va nazoratini takomillashtirish	628
Ostonokulov Azamat Abduraimovich, Alimardonov Asrorjon Alimardonovich	
Xizmat ko'rsatish sohasida investitsion jarayonlar rivojlanishining xorij tajribasi	635
Miyassarov Davron Abdurashid o'g'li	
Xizmat ko'rsatish va servis sohasida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash ko'rsatkichlari.....	640
Muhammadamin Erdon o'gli Erdonov	
Инновационные направления развития сферы услуг как фактор экономического роста.....	644
Насиров Дилшод Фархадович	
Влияние прямых иностранных инвестиций (пии) на экономику Узбекистана	654
Юлдашев Нодирбек Сайдибурханович	
Qulay investitsiya muhiti – xorijiy investitsiyalar oqimini oshirishning asosiy omilidir.....	659
Hoshimov Jahongir Ravshanbek o'g'li	
Biznesni loyihaviy moliyalashtirish va uning asosiy yo'nalishlari.....	664
Razzakov Jasur Xamraboyevich	
Inflation and Unemployment: Evidence from Uzbekistan	670
Mahmudov Nosir, Nabiyeva Nargizaxon Nuriddin qizi	
Milliy mahsulotlarni jahon bozoriga olib chiqishda marketing strategiyalaridan foydalanish	677
Meliqulov Abduhalil Norinovich	
O'zbekistonda kichik sanoat zonalarini tashkil etish va rivojlantirishda xorij tajribalaridan foydalanishning ustuvor yo'nalishlari	683
Ortiqov Avazbek Bahrom o'g'li	
Rene Dekart va Blez Paskal ta'limotlarida ratsional g'oyalar komparativistikasi.....	689
Ruzmatova Gulnoz Miraxrarovna	
Sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishining nazariy-uslubiy asoslari.....	694
Samijonov Musobek G'ayratjon o'g'li	
The Importance of the World Trade Organisation (WTO) and Uzbekistan's Efforts to Join It.....	699
Urozaliev Elyor, Khoshimova Sevara	
Jismoniy tarbiya va sport muassasalarini moliyalashtirishdagi mavjud muammolar.....	705
Abduqaxorov Ulug'bek Abdug'aniyevich	
Yangi O'zbekistonda turizmning drayver sifatida barqaror rivojlanish yo'nalishlari	709
Tuxliyev Iskandar Suyunovich	
Mahalliy soliqlar va yig'implarning iqtisodiy mohiyati hamda ularni undirishning xususiyatlari	713
Tuychiyev Kamoliddin	
Tijorat banklari raqobatbardoshligini oshirishda xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari va ulardan foydalanish yo'llari	717
Yadgarov Nodir Ravshanovich	
Organik qishloq xo'jaligiga o'tish bosqichlarining tashkiliy jihatlar va iqtisodiy asoslari.....	723
Amirqulov Shuxrat Olimovich	
Davlat xaridlari jarayonida e'tiborsiz ijrochilarni imkoniyatini cheklash masalalari	727
G'ofurov Temur Baxrom o'g'li	



O'zbekiston iqtisodiyotida investitsion loyihalarni faol tashkil etish istiqbollari	730
Utkurov Kozimjon Dilmurod o'g'li	
Iqtisodiy o'sishni ta'minlashda transport tadbirkorligi faoliyatini rivojlanish imkoniyatlari	733
M. Masharipova, I. Ruzmetova, D. Kuramboyeva	
Sug'urta faoliyatini takomillashtirishda andarrayting xizmatining o'rni	737
Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich	
O'zbekistonda eksportni sug'urtalash mexanizmlarini yanada kengaytirish yo'nalishlari	741
Qarshiyev Keldiyor Eshpulatovich	
Kambag'allikni qisqartirishda aholini tadbirkorlikka yo'naltirish	745
Rajabboyev Muzaffar Erkaboyevich	
Yoqilg'i-energetika korxonalarining moliyaviy barqarorligining ilmiy nazariy asoslari	749
Xusanov Qaxramon Nishonovich	
Оценка результатов реформы бухгалтерского учета в Республике	753
Киличева Фарида Бешимовна, Ирмухамедова Муслима Дилшодовна	
Эффективность программ соответствия в различных компаниях	757
Ахмедов Бехзод Ахмедович	
Элементы системы внутреннего контроля в выбранном финансовом институте	762
Хасанов Кахрамон Ахмаджанович	
Authentic Leadership Unleashed: A Comparative Analysis of Leadership Styles	767
Esanova Shohida Utkirovna	
Investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi moliyaviy risklarni boshqarishning ilg'or xorij tajribalari	774
Madiyarov Sanjar Gulyamovich	
Paxta-to'qimachilik klasterlarida xarajatlar hisobining uslubiy masalalari takomillashtirish	781
Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich, Umaraliyev Isomidin Ismonjon o'g'li	



AGLOMERATSIYA IQTISODIYOTI – AGLOMERATSIYA IQTISODIYOTI – HUDUDIIY RIVOJLANISHNI HARAKATLANTIRUVCHI OMILI SIFATIDA

Raximbayev Akmal Azatboyevich

Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada aglomeratsiya iqtisodiyoti va uning zamonaviy yondashuvlari aniqlangan. Jahon aglomeratsiya iqtisodiyoti doirasida hal etilishi lozim bo'lgan global va mintaqaviy muammolar aniqlangan. O'zbekistonda sanoat aglomeratsiyalarini rivojlantirishga bo'lgan yondashuv aniqlangan. Aglomeratsiya iqtisodiyotining fundamental asoslarini yaratishning hududiy rivojlanishga ijobiy ta'sirlari aniqlangan.

Kalit so'zlar: sanoat, hudud, mintaq, aglomeratsiya, urbanizatsiya, klaster, integratsiya, sinergiya, hududiy sanoat, sanoat tarmoqlari.

Abstract: This article defines the economy of agglomeration and its modern approaches. Global and regional problems that need to be solved within the framework of the world agglomeration economy have been identified. The approach to the development of industrial agglomerations in Uzbekistan has been defined. The positive effects of creating the fundamental foundations of the agglomeration economy on regional development have been determined.

Key words: industry, territory, region, agglomeration, urbanization, cluster, integration, synergy, regional industry, industrial sectors.

Аннотация: В данной статье определяется экономика агломерации и ее современные подходы. Выявлены глобальные и региональные проблемы, которые необходимо решать в рамках мировой агломерационной экономики. Определен подход к развитию промышленных агломераций в Узбекистане. Определено положительное влияние создания фундаментальных основ экономики агломерации на региональное развитие.

Ключевые слова: промышленность, территория, регион, агломерация, урбанизация, кластер, интеграция, синергия, региональная промышленность, отрасли промышленности.

Aglomeratsiya nafaqat urbanizatsiya jarayonlarini aks ettiruvchi tushuncha, balki, sanoat va hududiy iqtisodiyotni tashkil etishning o'ziga xos ilmiy yondashuvi sifatida shakllangan. Aglomeratsiyaning ta'siri mintaqaviy iqtisodiyot fanlarida bir asrdan ko'proq vaqt davomida o'z dolzarbligini yo'qotmay keldi va bu boradagi tadqiqotlar haligacha amalga oshirilmoqda.

Aglomeratsiyani iqtisodiy tushunishga bag'ishlangan birinchi ilmiy ish 1890-yilda ingliz iqtisodchisi Alfred Marshall "Iqtisodiy fanlar tamoyillari" asarida keltirilgan. Unda aglomeratsiyalarni transport xarajatlarini tejash, ishlab chiqarish tajribasi va inson kapitalini firmalarning sanoat klasterlarida o'zaro almashish usuli sifatida ta'riflagan¹. Klassik iqtisodiy qarashlardan farqli ravishda amerikalik iqtisodchi olim Maykl Porter mintaqaviy klasterlarning o'zaro ta'sirini ularning geografik, madaniy va tarixiy yaqinligidan kelib chiqqan holda aglomeratsiyaning raqobatdosh afzalliklarini oshirish usuli sifatida ko'rib chiqdi va hududiy rivojlanishning aglomeratsiyalarga asoslangan klaster nazariyasini ilgari suradi².

1 Маршалл А. Принципы экономической науки. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: [хттп://www.либRARY.фа.ру/филес/Маршалл.пдф](http://www.либRARY.фа.ру/филес/Маршалл.пдф).

2 Портер М. Конкурентная стратегия: методика анализа отраслей и конкурентов / М. Портер. – Москва: Альпина Бизнес, 2005. – 454 с.



Aglomeratsiya deganda ma'lum bir geografik hududda korxonalarning klasterlashuvi tushuniladi³. Aglomeratsiya iqtisodiyoti ishchilar va korxonalarning geografik jihatdan birgalikda joylashishiga olib keladigan mexanizm sifatida qaraladi. Aglomeratsiya iqtisodiyoti o'xshash yoki bir-birini to'ldiruvchi tovarlarni ishlab chiqaruvchi bir qator firmalarning bir-biriga yaqin joylashuvi asosida yuzaga keladi, bu esa, o'z navbatida, ushbu korxonalar uchun ijobiy tashqi ta'sirlarni keltirib chiqaradi⁴. Aglomeratsiya iqtisodiyotining ikkita asosiy turi mavjud: sanoat konsentratsiyasi (localization economiyes) va hudud iqtisodiy faoliyatni zichlashuvi (urbanization economiyes) natijasida yuzaga keladiganlar⁵. Geografik yondashuv nuqtayi nazaridan, aglomeratsiya aholini joylashtirish va hududiy tashkil etish tizimi sifatida qaraladi, u barqaror aloqalar bilan birlashtirilgan yirik markazlardan iborat bo'lgan aholi yashash punktlarining tayanch doirasi hisoblangan transport, logistika, siyosiy, madaniy va iqtisodiy makon sifatida qaraladi⁶.

2000-2010-yillarda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga (keyingi o'rinlarda OECD deb yuritiladi) a'zo bo'lgan 23 ta davlatda yalpi ichki mahsulot o'sishining qariyb 50 foizi shahar aglomeratsiyalari hissasiga to'g'ri keladi. 2020-yilga kelib dunyo aholisining 50% dan ortig'i shaharlarda istiqomat qiladi, bu esa jahon yalpi ichki mahsulotining 80% ni tashkil qiladi. Prognozlariga ko'ra 2030-yilga borib dunyo aholisining 33% aholisi 500 mingdan ko'proq bo'lgan shaharlarda istiqomat qiladi. Dunyoning 600 ta eng yirik shaharlarida 2017-yil ma'lumotlariga ko'ra jami aholining 22 foizi, ya'ni qariyb 1,5 mlrd. kishi istiqomat qiladi va 2025-yilga borib, bu ko'rsatkich 2 mlrd. kishi yoki 25 foizga yetishi prognoz qilingan. Mazkur shaharlarning jahon yalpi mahsulotining 2027-yilda qariyb 60 foizi to'g'ri keladi (2017-yilda 48 foiz)⁷.

Shu bilan birga, aglomeratsiyalar rivojlanishida muammolar mavjudki, ularning yechish jahon hamjamiyati oldida turgan ustuvor vazifalardir, jumladan: aglomeratsiyalarning infratuzilmaviy rivojlanish; mehnatga layoqatli aholining qisqarishi, o'rta va kichik shaharlarda mahalliy budjetlarni to'ldirishning manbalari va ularni rivojlantirish imkoniyatlarini qisqarib borishi, qishloq hududlarini rivojlantirish; ijtimoiy xizmatlar qishloqlarda narxining oshishi fonida aholining qarishi⁸.

Umuman olganda aglomeratsiya iqtisodiyotda keng o'rganiluvchi soha sifatida mintaqaviy iqtisodiy tizim va tuzilmalarning asosiy predmeti hisoblanadi.

Aglomeratsiya iqtisodiyoti ta'sir doirasi va kuchi uni shakllanish darajasiga qarab belgilanadi. Misol uchun, firmalarning yaqinligi va o'zaro ta'siridan (urbanizatsiya) kelib chiqadigan aglomeratsiyalarda masofa uzoqlashgan sari aglomeratsiya ta'sirining pasayishi kuzatiladi⁹. Urbanizatsiya iqtisodiyotida esa turli sohalarida boshqalarga yaqin joylashgan korxonalar uchun xarajatlarni qisqarishi tufayli sinergiya samarasi yuzaga keladi. Buning ma'nosi shundan iboratki, joyning kattaligi tufayli korxonalar o'z sohalaridan tashqarida tovarlar va xizmatlarning keng portfelidan (ya'ni, buxgalteriya hisobi, dizayn, yuridik xizmatlar) foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, aglomeratsiya iqtisodiyotidagi yana bir asosiy mexanizm mahalliyashtirish hisoblanadi, uning asosiy afzalliklari sanoatning boshqa firmalari yaqinida joylashtirish orqali o'zaro ta'sirini yuzaga chiqarish va qo'shilgan qiymat yaratishni nazarda turtishdir. Buning ma'nosi shundaki, firmalar infratuzilmani bo'lishish va o'z sanoati uchun ixtisoslashgan ishchi kuchini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Aglomeratsiya iqtisodiyotining afzalliklarini uchta mexanizm orqali umumlashtirish mumkin: almashish, moslashish va o'rganish. Firmalar obyektlarni, infratuzilmani, yetkazib beruvchilarni va ishchi kuchini almashishdan foyda oladi. Firmalar va ishchilar kattaroq yoki ko'proq ixtisoslashgan mehnat fondida o'z malakalari va ehtiyojlarini yaxshiroq qondirishga qodir. Bundan tashqari, firmalar kattaroq bozorda yangi texnologiyalar va biznes amaliyotlarini osonroq o'rganishlari mumkin¹⁰.

Postindustrial iqtisodiyotda "aglomeratsiya" tushunchasi va uning klassik ilmiy nazariy qarashlari shakllangan va rivojlangan. Biroq, hozirgi kunda aglomeratsiya ishlab chiqarishda nafaqat tovarlar, xizmatlar va mehnat unumdorligini oshirishga shart-sharoit yaratish shakli, balki inson hayoti uchun qulay sharoitlar yaratish vositasi sifatida qaralmoqda. Ya'ni, iqtisodiyotni tashkil etish shakli emas, balki inson hayotini tashkil etish shaklidir¹¹.

3 Bolter K., Robey J. Agglomeration Economies: A literature review. – 2020.

4 Porter, M. E. (1998). Clusters and the new economics of competition (Vol. 76, No. 6, pp. 77-90). Boston: Harvard Business Review

5 Cohen, J. P., Coughlin, C. C., & Paul, C. J. M. (2019). Agglomeration, productivity and regional growth: production theory approaches. In Handbook of regional growth and development theories. Edward Elgar Publishing

6 Меркурьев В.В. Организационно-экономические основы развития агломераций муниципальных образований: теория и методология. Дис. на соис. уч. ст. Д.э.н. Кемерово – 2022. 21 стр.

7 <https://города2030.екатеринбург.рф/file/8344ee89e6e392bb9fd9958b1649c973> (дата обращения 15.08.2019).

8 McKinsey Global Institute, 2011 "Urban World: Mapping the Economic Power of Cities" report

9 Audretsch, D., & Feldman, M. (2004). Knowledge spillovers and the geography of innovation. In J. V. Henderson & J.-F. Thisse (Eds.), Handbook of regional and urban economics: Cities and geography (Vol. 4, pp. 2713-2739). Amsterdam: North-Holland

10 Duranton, G., & Puga, D. (2004). Micro-foundations of urban agglomeration economies. In Handbook of regional and urban economics (Vol. 4, pp. 2063-2117). Elsevier.

11 Мерзлов Д. И. Развитие агломераций в кризисные периоды : дис. – Мерзлов Дмитрий Иванович.-Санкт-Петербург. СПбГЭУ. 2020.-180с, 2020.



2019-yil oxiridan buyon boshlangan global pandemiya inqirozi global aglomeratsiya tendensiyalarining yangi davrini yuzaga chiqardi.

Agar ishlab chiqaruvchi kuchlarning global miqyosda taqsimlanishini ko'rib chiqsak, unda jahon sanoat ishlab chiqarishi, elektr energetikasi, tog'-kon sanoati, metallurgiya, to'qimachilik sanoati va qishloq xo'jaligi kabi asosiy yo'nalishlarni baholash kerak.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon sanoat ishlab chiqarishidagi ulushini so'nggi 70 yil ichida yuqorilab borish tendensiyasi kuzatilmoqda., Jumladan 2018-yilda jami sanoat ishlab chiqarishining qariyb 20-22% i 8 ta rivojlangan mamlakatlar hissasidir.

Sanoat ishlab chiqarishi eng yuqori darajada rivojlangan birinchi TOP-5 mamlakatlar: AQSH – jahon sanoat ishlab chiqarishining taxminan 20%; Yaponiya – 11%; Xitoy – 9%; Germaniya – 6%; Rossiya – 4%. Bular asosan shimoliy mamlakatlar hisoblanadi. Darhaqiqat, jahon ishlab chiqarish kuchlarining tuzilishi va taqsimlanishini tahlil qiladigan bo'lsak, shimoliy mamlakatlari ilm talab qiladigan tarmoqlarda ustun ekanini, "janubiy" esa konchilik, yengil va oziq-ovqat sanoatiga ko'proq e'tibor qaratganini ko'rishimiz mumkin.

Jahon energetika sanoati sanoatning barcha turlarini rivojlantirish ko'rsatkichi ekanligi e'tirof etilgan. Elektr energiyasi ishlab chiqarishning o'sishi, mintaqaning sanoat rivojlanishiga doimiy yuqori korelyatsiyasi kuzatiladi. Energiya iste'moli bo'yicha yetakchi mamlakatlar hisoblangan Xitoy (6723 TVt/soat); AQSH (4585 TVt/soat); Hindiston (1526 TVt); Rossiya (1125 TVt); Yaponiya (1062 TVt/soat); Kanada (682 TVt/soat); Germaniya (671 TVt/soat); Braziliya (582 TVt/soat); Fransiya (567 TVt/soat); Koreya Respublikasi (558 TVt/soat).) ning umumiy ro'yxatida g'arb mamlakatlari asosiy iste'molchi va janubiy mamlakatlar esa uni ishlab chiqaruvchisi sifatida qatnashmoqda.

MDH mamlakatlarida gaz sanoatining rivojlanishi tabiiy gazning katta zaxiralari (jahon zaxiralarining qariyb 40%) bilan bog'liq bo'lsa-da, gaz sanoati rivojlanishida ikkinchi o'rinni Yaqin Sharq mamlakatlari hisoblangan Shimoliy Amerika (4,5%), G'arbiy Yevropa (4,5%) kabi 30 ga yaqin mamlakatlar hisoblanadi.

Umuman olganda, sanoatning bunday notekis taqsimlanishi hududardagi salohiyat va resurs imkoniyatlariga emas, ko'proq boshqa omillarga bog'liq va bu aglomeratsiyalarning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini aniqlash lozimligini keltirib chiqarida¹².

Yuqoridagilarni inobatga olganda, aglomeratsiya muammosiga bag'ishlangan manbalarda quyidagi ilmiy nazariy qarashlar shakllanganligini aniqlash mumkin:

- **Yevropa klassik modeli:** ishlab chiqarishning diversifikatsiyasiga asoslangan hududiy aglomeratsiyalar, bunda markaz ishlab chiqarish quvvati va atrofdagi aholi sonidan foydalanadi;
- **Amerika modeli:** markaz aholining haddan tashqari ko'payishini oldini olish uchun chekka hududlardan (hudud, infratuzilma, rekreatsion hududlar) foydalanadi (aholi punktlarini diversifikatsiya qilish asosida aglomeratsiyalar shakllanadi);
- **Rivojlanayotgan Osiyo modeli:** iqtisodiy faoliyat zichligini oshirish maqsadida ishlab chiqarish, iqtisodiy va inson kapitalining jadal o'sishini ta'minlash uchun aglomeratsiyaga kiritilgan shaharlarning rekreatsion, axborot va ta'lim salohiyatini birlashtirish va birgalikda foydalanish asosida aholisining turmush darajasini oshirishga qaratilgan aglomeratsiya modelidir.

Aglomeratsiya obyektlarni maqsadli, ixcham va eng mos keluvchi nuqtalarga joylashtirishga qaratilgan faoliyatni ifodalaydi, bu tarqoq qurilishga qaraganda sinergiya samarasining yuqori ko'rsatkichini beradi. Ushbu ta'sirlar mintaqaviy bozorni rivojlanishida, ta'lim sohasi, innovatsion faoliyat va investitsion jozibadorlikning o'sishi kabilarda o'z aksini topadi.

Bugungi kunga kelib, sinergiya ta'sirining eng oddiy misoli – bu hukumat tomonidan ham, mamlakat iqtisodiyoti uchun ham muhim bo'lgan aglomeratsiya samarasini yuzaga chiqarish imkonini beradigan, shaharlar, sanoat zonalari va ma'lum sohaga ixtisoslashgan klasterlarni o'z ichiga oladi.

Ishlab chiqarish quvvatlarini taqsimlashda hududning ixtisoslashuvi muhim o'rin tutadi. Muayyan tarmoqqa tegishli korxonalarning yuqori hududiy konsentratsiyasi hududga yangi ishlab chiqarish quvvatlarini jalb etish va sanoat aglomeratsiyalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Korxonalarning bunday zichligi xom ashyo, mehnat va logistika xarajatlarini kamaytirishga imkon beradi, chunki ishlab chiqarish obyektlarining hududiy yaqinligi tufayli sanoat subyektlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar sxemalari soddalashtirilgan. Iqtisodiy rayonning ixtisoslashuviga aloqador bo'lmagan tarmoqlar nisbatan yakkalanib qoladi, bu esa ularni tashkil etuvchi korxonalarning iqtisodiy samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va ularning bozor iqtisodiyoti sharoitida mavjud bo'lishining imkonsizligiga olib keladi. Biroq, O'zbekiston sanoatini hududiy rivojlanishiga e'tibor qaratilganda bunday holatlar yuqori nisbatlarni ifodalamaydi.

12 Нещадин А.А. Новые тенденции расселения в России [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://dok.opredelim.com/docs/index-51975.html> (дата обращения: 15.08.2019)



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, sanoatda bandlar va sanoat korxonalarining soni bo'yicha hududiy taqsimlanishini ko'radigan bo'lsak, hududiy iqtisodiy rivojlanishning mutanosiblik tamoyillari asosida sanoatni rivojlantirishga ahamiyat qaratilganligi aniqlanadi (1-jadval).

1-jadval: O'zbekiston Respublikasi sanoatining hududiy rivojlanishi¹³

Hududlar	Respublika ishlab chiqarish sanoati tarkibida hududlarning ulushi, %	Ishlab chiqarish sanoatda bandlarning ulushi, %	Ishlab chiqarish sanoati korxonalari soni bo'yicha ulushi, %
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3,3	3,34	3,40
Andijon	11,6	10,06	10,40
Buxoro	5,6	5,35	5,34
Jizzax	2,3	2,90	3,99
Qashqadaryo	3,3	4,70	5,03
Navoiy	14,8	5,68	3,88
Namangan	3,2	7,81	7,99
Samarqand	6,1	9,68	8,89
Surxondaryo	1,4	3,46	5,18
Sirdaryo	1,5	1,85	2,35
Toshkent	17,5	14,71	9,91
Farg'ona	6,2	13,40	11,08
Xorazm	3,8	3,41	4,86
Toshkent sh.	19,5	13,66	17,69

Ishlab chiqarish sanoatida O'zbekiston hududlarida yuqori farq darajalari aniqlanmasa-da, sanoat tarmoqlari bo'yicha ixtisoslashuv darajasi so'nggi yillarda ortib borish holatini ko'rish mumkin. Jumladan, 2021-yilda Respublikada ishlab chiqarilayotgan Kimyo mahsulotlarining 26,8 foizi Qoraqalpog'iston Respublikasi, Oziq-ovqat mahsulotlarining 16,3 foizi Toshkent viloyati va 18,5 foizi Toshkent shahriga, To'qimachilik mahsulotlarining 33,6 foizi vodiylar viloyatlari (Andijon, Namangan, Farg'ona) viloyatlari, Qog'oz va qog'oz mahsulotlarining 30 foizi Toshkent viloyatlari hissasi, Farmasevtika mahsulotlari va preparatlarining 69,0 foizi Toshkent shahri hissasiga to'g'ri kelgan.

Turli omillarning sanoatga ta'sirini ko'rib chiqishda xomashyo manbalari, yoqilg'i manbalari, mehnat resurslari va mahsulot iste'moli sohalari bilan eng bog'liq bo'lgan tarmoqlarni aniqlash mumkin. Biroq, faqat ustun omilni hisobga olgan holda ishlab chiqarishni joylashtirish imkoniyatini ko'rib chiqish noto'g'ri bo'ladi, barcha omillarni optimal tarzda birlashtirish eng maqsadga muvofiq yo'nalish hisoblanadi.

Sanoati rivojlanayotgan O'zbekistonning aglomeratsiyasi modeli ishlab chiqarish, iqtisodiy va inson kapitalining o'sishini jadallashtirish uchun shaharlar va iqtisodiy zonalar faoliyatini rivojlantirishga intilish, integratsiyalashning rekreatsion, axborot va ta'lim salohiyatidan birgalikda foydalanishga asoslangan klastelar yaratish nazarda tutilmoqda.

Mintaqaviy (aglomeratsiya) klaster – bu bir aglomeratsiyada joylashgan, sinergiya samarasini yaratish maqsadida bir xil yoki turdosh sohalarda faoliyat yurituvchi, bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan bir nechta tashkilotlarning iqtisodiy birlashmasi. Shunga ko'ra, O'zbekistonda sanoat aglomeratsiyalarni rivojlantirish hududiy yaxlitlik va mintaqaviy sanoatni o'sishini mutanosib saqlagan holda sanoat tarmoqlariga hududlarni ixtisoslashtirish orqali aglomeratsiyalar rivojlanishiga erishish strategik yo'nalish hisoblanadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilganda aglomeratsiya iqtisodiyoti va uning fundamental asoslarini yaratish hududiy rivojlanishda quyidagi muhim bo'lgan iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash imkonini beradi:

Joylashuvni lokalizatsiya samarasi: har xil turdagi xarajatlarni kamaytirish uchun hududiy prinsip bo'yicha yaqin bo'lgan tarmoqlarni birgalikda rivojlantirishi orqali tranzaksiya, taqsimot va lagistik xarajatlarni qisqarish, ishlab chiqarish omillarining maqsadli va samarali taqsimoti, optimal kommunikatsiya, axborot va boshqalarni shakllantirish, mehnat unumdorligini oshirish, mahalliy, yagona mehnat bozorini shakllanishi, innovatsiyalarga qodir yuqori malakali mutaxassislar jamlanishi va yangi iqtisodiy tarmoqlarni paydo;

13 O'zbekiston sanoati. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi. Toshkent 2022-yil. – O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi statistik to'plami ma'lumotlari asosida tayyorlangan.



Urbanizatsiya samarasi: innovatsion, yuqori texnologiyali faoliyatlarni mutanosib rivojlanishi, infratuzilma, ta'lim va yuqori turmush darajasini ta'minlanishi, aholining madaniy darajasi va saviyasini oshib borishi, yangi xizmat turlariga talabning paydo bo'lishi va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini innovatsiyalar diffuziyasi asosida rivojlanishi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Маршалл А. Принципы экономической науки. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://www.library.fa.ru/files/Marshall.pdf>.
2. Портер М. Конкурентная стратегия: методика анализа отраслей и конкурентов / М. Портер. – Москва: Альпина Бизнес, 2005. – 454 с.
3. Bolter K., Robey J. Agglomeration Economies: A literature review. – 2020.
4. Porter, M. E. (1998). Clusters and the new economics of competition (Vol. 76, No. 6, pp. 77-90). Boston: Harvard Business Review/
5. Cohen, J. P., Coughlin, C. C., & Paul, C. J. M. (2019). Agglomeration, productivity and regional growth: production theory approaches. In Handbook of regional growth and development theories. Edward Elgar Publishing.
6. Меркурьев В.В. Организационно-экономические основы развития агломераций муниципальных образований: теория и методология. Дис. на соис. уч. ст. Д.э.н. Кемерово – 2022. –21 стр.
7. <https://города2030.екатеринбург.рф/file/8344ee89e6e392bb9fd9958b1649c973> (дата обращения 15.08.2019).
8. McKinsey Global Institute, 2011 "Urban World: Mapping the Economic Power of Cities" report.
9. Audretsch, D., & Feldman, M. (2004). Knowledge spillovers and the geography of innovation. In J. V. Henderson & J.-F. Thisse (Eds.), Handbook of regional and urban economics: Cities and geography (Vol. 4, pp. 2713-2739). Amsterdam: North-Holland.
10. Duranton, G., & Puga, D. (2004). Micro-foundations of urban agglomeration economies. In Handbook of regional and urban economics (Vol. 4, pp. 2063-2117). Elsevier.
11. Мерзлов Д. И. Развитие агломераций в кризисные периоды: дис. –Мерзлов Дмитрий Иванович.–Санкт-Петербург. СПбГЭУ. –2020.–180 с. –2020.
12. Нецадин А.А. Новые тенденции расселения в России [Электронный ресурс]. –Режим доступа: <http://dok.opre-delim.com/docs/index-51975.html> (дата обращения: 15.08.2019).
13. O'zbekiston sanoati. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi. –Toshkent-2022-yil.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.